

YOSHLAR - KELAJAGIMIZ .

Namangan viloyat tarix va Ma'daniyati davlat muzeyi ilmiy kotibi

Uralova Muazzam.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

BMT Bosh Assambleyasining

72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Muxtasar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va ba yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

30 yoshga qadar bo‘lgan yoshlar O‘zbekiston aholisining 60 foizini tashkil etgani holda, mamlakatning eng qimmatli resursidirlar. 15-20 yildan song bugungi bolalar va yoshlar O‘zbekiston tarixida eng ko‘p sonli ishchi kuchini tashkil etadilar. Sarmoyalar tog‘ri yonaltirilsa hamda ularning ehtiyoj va qiziqishlari hisobga olinsa, aynan shu yoshlar O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi darajasiga olib chiqadigan avlod bolishlari mumkin. Taraqqiyot shiddati tobora ortib, global tahdidlar va transformatsiya jarayoni kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda davlatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni munosib tarbiyalash va yoshlarga oid siyosatni samarali yuritish bo‘lib qolmoqda. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, **“Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”**.

Yoshlar muammosi faqat ta’lim muassasalari yoki ish joyidagi mutaxassislar ko‘magida emas, balki uni va oilasini yaxshi taniydigan, biladigan muhitda — mahallalarda hal etilmoqda. Bu jarayonda mahalladagi yoshlar yetakchilarining tajribasi va tashabbusi muhim ahamiyat kasb etayotir. Mamlakatimizda yoshlar siyosatiga oid tizimli ishlar natijasida tashabbuskor, islohotlarni amalga oshirish va joylardagi muammolarni hal etishga qodir yosh kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozir aynan shunday yoshlarga ishonch bildirilib, mas’ul lavozimlarga tayinlanmoqda.

